

**MOLIYALASHTIRISH VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI
OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY JIHLTLARI**

Sayfullayev Sanjarbek

- Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

bank ishi va audit yo'nalishi 2- bosqich talabasi

sanjarbeksayfullayev04@gmail.com

Annotatsiya: *Iqtisodiyotning joriy, uzoq muddatli va strategik moliyaviy rejalashtirish zarurati muhim xususiyatlarga ega. Ushbu holatda har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lishi va uni ushlab turishi hamda har bir xo'jalik yuritvchi subyekt tomonidan strategik boshqaruvni tashkil qilish va yuritish dolzarb vazifalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *Strategiya, prognoz, joriy strategiya, uzoq muddatli strategiya, moliyaviy rejalashtirish, sarflar, chiqimlar, tannarx, aktivlar, joriy aktivlar, budjet daromadlari, strategik boshqarish.*

Abstract: *The ability of an economy to develop long-term, short-term and strategic financial planning has a significant impact. In this case, it is important for the company to have a strong position and work on it, and the company is responsible for organizing and selling the company.*

Key words: *strategy, forecast, global strategy, long-term strategy, financial planning, expenses, expenses, cost, assets, working capital, budget revenues, strategic management.*

Аннотация: *Значительные успехи имеет долгосрочное, краткосрочное и стратегическое финансовое планирование экономики. В этом случае экономической единице важно иметь сильную позицию и работать над ней, организовывать и поддерживать стратегическое партнерство.*

Ключевые слова: *Стратегия, прогноз, итоговая стратегия,*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

долгосрочная стратегия, финансовое планирование, расходы, стоимость, активы, оборотные средства, доходы бюджета, стратегическое управление.

Aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>). Bugungi kunda Yagona portal orqali 450 tadan ortiq elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda. Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan, bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish va tezkor jo'natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizim "project.gov.uz" joriy etildi.

Bundan tashqari, avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni tashish xizmati uchun litsenziya berish, abituriyentlardan hujjatlarni onlayn qabul qilish, ipoteka kreditiga davlat subsidiyasi va o'qish joyidan ma'lumotnoma olish xizmatlari ham yaratildi. Hukumat organlari va aholi o'rtasida samarali qayta muloqot tizimi o'rnatilishi eng yorqin misollardan biri sifatida ishga tushgan "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portalini ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda mazkur veb-portalga 3,6 mingdan ortiq murojaatnoma kelib tushdi, 25,2 mingdan ortiq taklif va izoh chop etildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 26 ta yangi xizmatlar ishga tushirilib, umumiy xizmatlar soni 200 tadan oshadi. Yil boshidan buyon 1,4 millionta elektron xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga oshgan. Shu bilan birga, yil yakuniga qadar Yagona portaldagi joriy

qilinadigan 50 ta ommabop davlat xizmatlari ro'yxati tasdiqlandi.

Elektron hukumatning idoralararo platformasida davlat organlarining 90 ga yaqin axborot tizimlari va resurslarining o'zaro elektron hamkorligini ta'minlash yo'lga qo'yilib, 160 milliondan ortiq so'rovlarga onlayn shaklda ma'lumotlar berilgan. Davlatimiz rahbari huzurida shu yil 8 iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, "Elektron hukumat" xizmatlariga talab kundan-kunga ortmoqda. Lekin hozir 780 turdagi davlat xizmatidan bor-yo'g'i 185 tasidan "elektron portal" orqali foydalanish imkoni mavjud.

Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjat almashinuvini elektronlashtirish bilan cheklanmoqda. Bu borada elektron hukumatni yanada rivojlantirish, fuqarolar uchun zamonaviy qulay davlat xizmatlarini ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonni jadallashtirish maqsadida eng muhim yo'nalish va dolzarb masalalarni qamrab olgan 104 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Masalan, sog'liqni saqlash tizimida "Yagona elektron tibbiy karta" axborot tizimining joriy etilishi yurtimiz fuqarolari to'g'risida yagona tibbiy ma'lumotlar bazasini shakllantirishga, aholining salomatligi monitoringini o'tkazishda yordam beradi.

"Elektron retsept" axborot tizimi esa bemorlarning medikamentoz vositalar bilan samarali va xavfsiz davolanishini tashkil etish, shifokorlarning elektron reestrini shakllantirishga yo'naltirilgan loyihadir. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy vositalarni nazorat qilish va monitoring olib borish tizimini takomillash-tirishga ko'mak beradi. Tibbiyot muassasalarida zamonaviy kompyuterlashtirilgan tizimni yaratish orqali tibbiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlarini joriy etish ham ko'zda tutilgan.

O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlar bo'lib, ularni zamonaviy axborot texnologiyalariga keng jalb qilish, dasturiy mahsulot yaratish va outsourcing xizmatlarini ko'rsatishga ko'maklashish orqali ish bilan ta'minlash muhim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

vazifalardan hisoblanadi. O'zbekistonning eng katta boyligi — aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlardir. Shuning uchun ham yoshlarimizning jamiyatdagi nufuzini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularning yangi-yangi mutaxassisliklar va kasblarni egallashiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2019 yil dekabr oyida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi AKT yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan maktabning zamonaviy binosi foydalanishga topshirildi. Ayni paytda matematika va xorijiy tillar bo'yicha imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan 680 nafar bola ushbu maktabning 5-11-sinfida ta'lim olmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ta'lim sohasida ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. 2018-2019 o'quv yilidan boshlab universitet zamonaviy ta'limning kredit tizimiga o'tkazildi, va hozirgi kunda bu tizimda 9 609 nafar talaba ta'lim olmoqda. Universitet tuzilmasida O'zbek – Belarus qo'shma fakulteti ham tashkil etildi. 2019 yil oktabr oyida universitetda Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining (JICA) 1,6 million dollar miqdoridagi texnik granti hisobiga zamonaviy o'quv media markazi ochildi. Media markazda videokontentni tasvirga olish va ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Mazkur davr mobaynida xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'lida Toshkent shahridagi Inha universiteti ham samarali ish olib bordi. 2019 yil mart oyida universitetda O'zbekistonda biznes tahlilchilarni tayyorlash birinchi "ASPEX BI SCHOOL" maktabi ochildi. Yoshlar o'rtasida IT-asoslarini keng o'qitish, ularning ushbu yo'nalishda ta'lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vazirlik tomonidan "Besh tashabbus" dasturi doirasida aholi va yoshlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish-larini tashkil qilish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etilib, yangi ish o'rinlari yaratildi. Bundan tashqari, Toshkent shahridagi Amiti universiteti tashkil etildi. Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, axborot texnologiyalari sohasidagi yuksak maqsadlarga zamonaviy dasturchilar tayyorlash jarayonini jadallashtirish orqali

erishish mumkin. Shuning uchun mavjud bo'shliqni to'ldirish maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi ishga tushirilgan. Bugungi kunda "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida mashg'ulotlar uzbekcoders.uz o'quv portali orqali olib borilmoqda. Unda talab eng yuqori to'rtta mutaxassislik bo'yicha bepul videokurslar, jumladan, ma'lumotlarni tahlil qilish, android ilovalar, vebilovalar va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish bo'yicha darslar o'zbek tilida subtitrlar bilan taqdim etilgan.

Keng jamoatchilikni raqamli bilimlarni o'zlashtirish va axborot texnologiyalari sohasidagi yangi mutaxassisliklarni o'rganishga jalb qilish maqsadida vazirligimiz tomonidan "Bir million dasturchi" loyihasida yoshlar ishtirokini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, uzbekcoders.uz portali orqali 2020-2021 o'quv yilida 2,1 mingdan ortiq maktabning 47 mingdan ziyod o'quvchisini, 44 ta oliy ta'lim muassasa-sining 54 mingdan ortiq talabasini o'qitish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tegishli yo'nalishlarning mutaxassislik fan-lari hamda umumta'lim maktablarining informatika fani dasturlariga "Bir million dasturchi" loyihasi doirasidagi dasturlash yo'nalishlari mavzularini kiritish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shu maqsadda yurtimiz bo'ylab aholi va yoshlar uchun raqamli texnologiya o'quv markazlari tashkil qilingan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlan-tirish vazirligi tomonidan barcha hududlarda raqamli texnologiyalar bo'yicha kamida 100 ta o'quv markazini ochish rejalashtirilmoqda. Bu dargohlarda dasturlash asoslari, elektron savdo va grafikli dizayn kabi yo'nalishlar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari yo'lga qo'yiladi. Bu kabi loyihalarga start berilgani ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o'rni va rolini, ularning yurtimiz bo'ylab qamrovini jadal sur'atda oshiradi. Tizim muntazam rivojlanyapti, keng ko'lamlil va kompleks loyihalar amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan birga, hali oldimizda bajarilishi zarur bo'lgan muhim vazifalar turibdi. Zero, O'zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning barcha soha va

tarmoqlarga joriy etilishi va qo'llanishiga uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda AKT sektori va vositalari tobora jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ekan, ularni inkor etish yoki aylanib o'tish huddi bir qadam oldinga, so'ngra ikki qadam ortga harakatlanish bilan tengdir. Negaki, AKT sohasidagi global chaqiriqlarga tayyor bo'lish – davlat xizmatlari va iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini raqam-lashtirish yo'li bilan shaffof tizim yaratilishini taqozo etadi. Shuning uchun raqamlashtirish jarayonini avvalambor insonlar o'zlaridan boshlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rini-shini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Dunyo bo'ylab raqamli Gegemonlar yangi va dinamik raqobatchilarga duch kelishmoqda. G7 doirasida Fransiya 2017 va 2019 yillarda mos ravishda raqamli raqobatbardoshligi bo'yicha eng ko'p rivojlana oldi, bu esa mamlakatni ushbu guruhdagi eng yuqori raqamli Rizerga aylantiradi; ammo, G7 ichida Italiya va Germaniyda eng ko'p pasayish kuzatilgan. G20 doirasida ushbu reyting ikkita global raqamli gegemonga: Xitoy va AQShga oid qiziqarli qonuniyatlarni ochib beradi.

Bu shuni ko'rsatadiki, Xitoy raqamli raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirdi, AQShda esa bu ko'rsatkich xuddi shu davrda, asosan xalqaro iste'dodlar uchun jozibadorlikning pasayishi tufayli tushib ketdi. G20-da raqamli ko'ring o'sishi bo'yicha birinchi uchligi Saudiya Arabistoni, Fransiya va Indoneziya. So'nggi o'rinni Hindiston, Italiya va Germaniya egalladi. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va bir qancha noqulay taraflari ham mavjud, (1-jadval).

1-jadval.

Raqamli iqtisodiyotni investitsion jozibadorlikni oshirishning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
Keng ma'lumot va tanlov	Texnologiya gigantlarining

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	monopoliyaviy kuchi
Vaqtning tejaydi	Kamroq jamoat to'planuvi
Biznes uchun xarajatlarni kamaytiradi	Texnologiyaga qaramlik
Yuqori personallashtirish	Xavfsizlik muammolari
Bozor raqobatiga kirish uchun to'siqlar-ning pastligi	Mehnat to'g'risidagi qonunlarni chetlab o'tish
Ishda yuqori moslashuvchanlik, odamlarga uyda ishlashga imkon beradi	An'anaviy iqtisodiyot va ish joylariga xalaqit berish
Jaxon iqtisodiyoti rivojlanishi uchun foydali	Potensial ekologik xarajatlar

Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish jarayonlari juda ancha sust kechmoqda. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin: ko'plab sohalardagi monopoliya; internet tezligini pastligi va uning sifatsizligi; axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi; fuqarolarda kompyuter savodxonligining birmuncha pastligi; axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi; axborot madaniyati, axborot gigienasi pastligi; axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi; boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki (ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi; ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi (yoki rivojlanishdan to'xtab qolganligi).

Yuqorida keltirilgan muammolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo

tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan biri bo'la oladi. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

“Raqamlashtirish” so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – traxzaktsion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi.

Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logis-tika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiya-larining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilar-monlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot

aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi.

Hozir butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug'dirmoqda. Prognozlarga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», additiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda:

- axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;

- yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);

- o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;

- autorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;

- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir.

Ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan

ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishiga asoslangan. Jahon banki hisob-kitoblari binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko'payishi yillik YaIM ko'lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o'sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko'rsatkich sifatida qaraladi. 2010 yilda Boston Consulting Group kompaniyasi raqamlashtirish ko'lamini 20ta mamlakatdan iborat guruh uchun 2,3 trillion dollarga (4,1 foiz YaIM) baholagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 10-15 yildan keyin bunday iqtisodiyotning jahon YaIMidagi ulushi 30-40 foizga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.M Mirziyoyev **“2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha - Harakatlar strategiyasi”**.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
3. Mirzayev K.Zh., Azizkulov B.X. Priorities for improving software efficiency in the digital economy. Psychology and education (2021) 58(2): 5866-5873 ISSN: 00333077 5866 www.psychologyandeducation.net.
4. Abdukarimov A., Rashidov A. Ma'lumotlar bazalarining–biznesni tashil etish va samaradorligini oshirishdagi roli //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T
5. Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises / A.D. Chandler. Cambridge, Mass, MIT Press, 1962.
6. Филобокова Л.Ю. Стратегия и тактика управления оборотным капиталом малых предприятий в условиях глобализации экономических процессов. – М.: “Дайджест-финансы”,

7. Грант Р.М. Современный стратегический анализ. /Пер. с англ., /под ред. В.Н. Фунтова. 5-е изд. –СПб.: Питер, 2008.
8. Касаткина Е.В. Проблемы прогнозирования денежных потоков для оценки эффективности инвестиционных проектов /Е.В. Касаткина. // Теория и практика общественного развития. – Москва., 2010. № 4.
9. Фрумин И.Л. Сценарное прогнозирование, его приложения к исследованию некоторых проблем аграрной экономики. / И.Л. Фрумин, М.Н. Степанова //Известия Челябинского научного центра УРО РАН. –2007. -№ 2.